

FARZAND TARBIYASIDA OILANING PSIXOLOGIK O'RNI VA MUHIM VAZIFALARI

*Mirzayeva Mastura Sharafidinovna
 Samarqand viloyati Ishtixon tumani
 37-maktab amaliyotchi psixolog*

ANNOTATSIYA

Farzandga yaxshi tarbiya berish ota-onaning asosiy mas'uliyatli vazifalaridan biridir. Bu borada ular har qadamda mas'uliyat bilan yondashmog'i lozim. Kelajakdagi yo'li ravon bo'lishini istagan har bir ota-onalar sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaning buyuk insonlari bo'lgan farzandlarini ulg'aytirish uchun sarflashlari lozim. Farzand kamoloti uchun sarflangan har bir daqiqa ertangi farovon hayot uchun tamal toshi bo'ladi desak hech mubolag'a bo'lmaydi

Kalit so'zlar: oila, jamiyat, bola tarbiyasi, ijtimoiy hayot, ruhiy holat, tushkunlik psixik jarayonlar.

KIRISH

Xalqimizda “Qush uyasida ko'rganini qiladi” degan naql bejizga aytilmagan. Har bir ota-onan o‘z farzandi uchun ko‘zgudir. Ularning muomala va munosabati, o‘zini tutishi farzandiga bo‘lgan e’tibori alohida ahamiyatga ega. Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy farzand tarbiyasi xususida shunday deydi: “Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish bilki, uni kichkinaligidan parvarish qilishdir. Qatrani sadaf tarbiya qilgani uchun odamlarning boshiga chiqib sharaf topdi. Tarbiyaning yana biri bo’laga ilm-u adab o‘rgatish uchun muallim chaqirishdir. O‘g‘ling bilimsizligicha qolib ketsa, ajab kamchilik bo'ladi. Unga sening shafqat qilishing foydalidir, lekin buning ortiqchasi zarardir”. Bu fikrlar orqali qattiqqo’llik va shafqatning me'yorda bo‘lishini bilish mumkin.

Agar ota-onan vaqtida farzandiga e’tibor qaratmasa, uning kelajagi uchun qayg‘urmasa, keyinchalik afsus – nadomat bilan yashashi muqarrar. Bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. O’sha vaqtda esa muammolarni hal qilishga kech bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, farzandining taqdiri uchun e’tiborli bo‘lib, uning xulqi, tarbiyasiga va ilm olishiga befarq bo‘lmaslik lozim. Mirzo Ulug‘bekning oila muhitini yaxshilash, sog‘lom tarbiya berish haqida quyidagi qarashlari mavjud. Bolaning bilim olishiga bo‘lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit, ya’ni oila muhim o‘rin egallaydi. Oilada ota-onalar bilimli bo‘lishini, tarbiya berishda ota-onaning o‘zi o‘rnak va hayotiy misol bo‘lishiga farzandi guvoh bo‘lishi eng ko‘p samara berishi ta’kidlangan.

Jadid adabiyotining namoyandasi Abdurauf Fitrat jamiyat rivoji va yurt ravnaqи farovonligida oilaning o‘rni xususida fikr yuritib, “Oila” asarida shunday mulohazalar bildiradi: “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq.Tinchlik va totuvlik ana shu millat oilalarining intizomiga tayanadi.Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi”.

Hozirgi kunda oila davrasida bilim olish va kitob o‘qish borasida suhbat qilish, farzandining ilm olishi xususida suhbatlar kamayib bormoqda. Farzandlarning ham o‘z vaqtini telefon bilan o‘tkazishi keng tus olyapti. Bunda me’yordan oshib ketish holatlari ko‘p uchramoqda. Farzandni kitob o‘qishga bo‘lgan muhabbatini oshirish uchun astoydil harakat qilinsa, bolada kitob o‘qishga ko‘nikma hosil bo‘ladi. Bilim olishga bo‘lgan intilish yanada kuchayadi. Oilada bolaning muntazam kitob o‘qishini rivojlantirish uchun ota-onan astoydil harakat qilmog‘i lozim.Sharq mutafakkirlari yetuk insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligi haqida so‘z yuritganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning “Al-Adab al-Mufrad”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Shayx Sa’diyning “Guliston”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlarini misol qilib keltirish mumkin.

Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati muhim sanaladi. Farzandning tarbiyasini faqat onaga tashlab qo‘yish to‘g‘ri emas. Bu borada otaning ham o‘rni beqiyosdir. Hayotda og‘il ko‘proq otaga qarab ergashadi. Otaning samimiyligi, hurmati va yaxshiligi farzandga kuch-quvvat bo‘ladi. Oilaning asosiy tirgagi bo‘lgan ota hayotning mashaqqatlarini kechib, o‘zining bukulmas irodasi, adolatparvarligi, hayot sinovlariga bardoshliligi bilan ajralib turuvchi buyuk shaxs sifatida gavdalanadi. Ota oilada o‘z farzandlariga yurish-turishda, nutq odobida, o‘zaro muomala madaniyatida to‘g‘rilik, halollik, samimiylilik yuzasidan namuna bo‘la oladi. Oilada samimiylilik, bir-biriga bo‘lgan mehr va hurmat yuqori bo‘lsa, farzandning o‘sib ulg‘ayishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Alisher Navoiy tarbiyaning yana bir ko‘rinishi ota-onani hurmat qilish ekanligini farzandlarga uqtiradi: ”Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi. Ikki dunyong obod bo‘lishini istasang, shu ikki odam roziliginini ol. Tun-u kuningga nur berib turganning birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh”.Oilada ma’naviy-ruhiy muhit, bola tarbiyasida g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Oila sog‘lom, yetuk farzandni ulg‘aytirib kamol toptirishda mas’uldir. Farzandni sog‘lom, yetuk, bilimli, shijoatli qilib voyaga yetkazish oilaga, ota-onaga bog‘liqdir.

Pedagog olimlardan A.Q.Munavarov o‘zining “Oilaviy tarbiya samaradorligining pedagogik shart-sharoitlari” deb nomlangan tadqiqtida oilaning ijtimoiy maqomi va ijtimoiy tarbiyaning funksiyalarini tadqiq etgan.Pedagogika fanlari doktori, professor O.Musurmonova oilada ma’naviy madaniyatni shakllantirish orqali bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga e’tibor qaratgan. Olma oila tarbiyasi haqida

to‘xtalganda, uning keng qamrovli ekanligini, jamiyat hayotining barcha jihatlarini o‘ziga qamrab olishini shunday bayon etadi: “Oila tarbiyasida hikmat ko‘p. Yangi o‘tqazilgan niholning to‘g‘ri yoxud egri o‘sishi bog‘bon mehnati va mahoratiga bog‘liqdir. Egri o‘sayotgan niholning qaddini rostlab qo‘yilmasa, u noto‘g‘ri rivojlanadi. Yangi tug‘ilgan go‘dak tarbiyasi bilan yosh nihol holati o‘rtasida qandaydir tabiiiy o‘xshashlik mavjud.

Bundan ko‘rinib turibdiki, mehnat tarbiyasi, axloq-odob normalari, Vatan tuyg‘usi va vatanparvarlik tarbiyasi, ma’naviy-estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, milliy g‘urur va iftixor tarbiyasi, ijtimoiy tarbiya va shu kabilar oiladan boshlanadi”

Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash orqali ijtimoiy hayotga tayyorlash masalasi M. Inomova, Sh. Atadjanova, Sh. Shodmonovalar tomonidan turli yosh davrlari bilan bog‘liqlikda tadqiq etilgan.

Oila inson uchun mehnat qobiliyatini tiklash va dam olish joyi. Shuningdek, oila muhim tarbiya o‘chog‘i hamdir. Oilada bolalar tarbiyasida ota-bobolar, momolardan qolgan, ming yillar mobaynida hayot sinovlaridan o‘tgan yaxshi udum, odatlar mavjud. Pedagogika fanlari doktori, professor M. Inomova oilaning quyidagi jihatlarini alohida ajratib ko‘rsatgan:

- birinchidan, oila o‘ziga xos va takrorlanmas ta’sirga ega;
- ikkinchidan, oila bola uchun o‘ziga xos «ko‘zgu» bo‘lib, ota-onaning shaxsiy namunasi, ibrati bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi;
- uchinchidan, oila o‘ziga xos hissiyotlar olamidan iborat bo‘lib, unda ijobjiy va ba’zan salbiy his-tuyg‘ular jamuljam bo‘ladi;
- to‘rtinchidan, oila sharoitida bolalarda o‘zgalarga nisbatan hamdardlik tuyg‘ulari ham tarbiyalanadi;
- beshinchidan, oiladagi maishiy turmushda bolaning ishtirok etishi ham axloqiy tarbiyaning muhim omili sanaladi;
- oltinchidan, oila – er-xotinlik, ota-onalik vazifalarini aks ettiradi. Ota-onaning bir-biriga bo‘lgan muhabbati bolaga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy tarbiyaviy omillardan biriga aylanishi mumkin

Demak, oila – tarbiyaviy jamoa va hech kim hech qanday holatda oilaning vazifasini bajara olmaydi. Oila hayoti ko‘p tomonlamali munosabatlar bilan tavsiflanadi: ijtimoiy-biologik, xo‘jalik-iqtisodiy, axloqiy, psixologik. Oila rivojining har bir bosqichi bir funksiyasining tugashi, boshqasining paydo bo‘lishi, uning a’zolarining ijtimoiy faoliyatining o‘sib borish ko‘lami va tavsifi bilan bog‘liq. V.A. Slastenin, I.F. Isaev, E.N. Isaevlarning fikricha, oila jamiyat va shaxsga munosabati bo‘yicha muhim ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarni bajaradi.

Jamiyatga munosabati bo‘yicha oilaning vazifalari quyidagilarda aks etadi:

- aholining tabiiy ko‘payishi. Avlodlarning almashinuvi uchun dav-lat tomonidan belgilangan doirada bolalar soni muvofiq bo‘lishi zarur.
 - tarbiyaviy vazifasi – bilim, ko‘nikma va malakalar, me’yorlar, qadriyatlar, ma’naviy boyliklarni uzatish.
 - ishlab chiqaruvchi-xo‘jalik. Sotsiologlarning ko‘rsatishicha, oila-ning oila ishlaridan to‘liq ajralishlari uchun qo‘srimcha 40-45 mln odam talab etiladi.
 - bo‘sh vaqtini tashkil etish.
- Shaxsga munosabati bo‘yicha oilaning vazifalari quyidagicha:
- er-xotinlik vazifasi. Er-xotinlar – eng yaqin kishilar, ular o‘zaro birbirini to‘ldiradi, bir-biridan ruhiy madad oladi.
 - ota-onalik vazifasi. Oila qariganda ota-onalarning hayotini bezash uchun zarur bo‘lgan ishtiyoqni ta’minkaydi.
 - turmushni yo‘lga qo‘yish

Muqaddas islom dinimizda farzand - inson hayotining mazmuni, nasl - nasabini davom ettiruvchisi, oilaning mustahkam silsilasidir. Yaxshi, solih farzand – ota-onaning baxt-iqboli, ikki dunyo saodatiga yetkazuvchi dilbandidir. Oila va solih farzandlar ko‘rishni orzu qilmagan inson bo‘lmasa kerak. Farzandning yaxshi, odobli, mehnatsevar, sog‘lom bo‘lib o‘sishi ko‘p jihatdan onasiga bog‘liq bo‘ladi. Olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, ona tarbiyasini olgan, uning g‘amxurligi, shafqatini har qadamda his etib turgan bolalar butunlay o‘zlarini jamoat ishlariga baxshida qilib, sog‘lom, aqlli, tarbiyali va ko‘ngilchang bo‘lib ulg‘ayishar ekan.

XULOSA

Farzand tarbiyasida onaning muhim vazifasi farzandlariga mehribonlik ko‘rsatib, ularni turli aziyat beradigan narsalardan muhofaza qilgan holda vaqtida oziqlantirib, yuvib-tarab, toza kiyintirib, shamollab qolishiga yo‘l quymay, uni parvarish qilishga dangasalik qilmay doimo hushyor va undan xabardor bo‘lishi lozim. Oila davrasida qiladigan onaning har bir harakati, og‘zidan chiqadigan har bir so‘zi, farzandining tarbiyasiga va uning shaklanishiga ijobjiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Har bir harakatidan o‘ziga nusxa olib, hali shakllanmagan so‘z zaxirasiga onaning so‘z boyligidan andoza oladi. Avvalambor, oilaning tinch-totuv, oila a’zolarining bir birlariga mehr-oqibatli bo‘lishlari farzand tarbiyasida muhim va munosib o‘rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Лихачев Б.Т. Педагогика – М.: ЮРАЙТ, 2003.
2. Мунавваров А. К. Оилавий тарбия самарадорлигининг педагогик шартшароитлари. Т.: Фан. 1989.
3. Мунавваров А. К. Оила педагогикаси – Т.: Ўқитувчи, 1994
4. Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. – Т.: Ўқитувчи, 1999.
5. Ziyo.net materiallari